

Methodology For Enhancing The Pedagogical Mastery Of Prospective Primary School Teachers Through National Upbringing

Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna

Senior Lecturer, Department of Education, Kokand University

ORCID ID: 0009-0000-0958-8435.

zulfiyaxon08@gmail.com

Abstract

This article addresses the issue of enhancing the pedagogical mastery of prospective primary school teachers through the integration of national upbringing values into their professional training. The role of national traditions, moral and ethical norms, and elements of folk pedagogy in shaping the teacher's personality is analyzed from a methodological perspective. The study substantiates approaches aimed at developing prospective teachers' skills in consciously planning educational activities, organizing the teaching process based on national values, and generating creative solutions appropriate to pedagogical situations. The research contributes to the improvement of effective methodological foundations for the formation of pedagogical mastery within the primary education system.

Keywords: national upbringing, pedagogical mastery, prospective teacher, primary education, professional competence, educational activity, folk pedagogy, moral and ethical values, methodological preparedness, pedagogical creativity.

Annotatsiya

Bu maqolada milliy tarbiya qadriyatlarini bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligiga integratsiya qilish orqali ularning pedagogik mahoratini oshirish masalasi yoritilgan. Milliy an'analar, ma'naviy-axloqiy me'yorlar va xalq pedagogikasi elementlarining o'qituvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni metodik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Bo'lajak o'qituvchilarda tarbiyaviy faoliyatni ongli rejalashtirish, milliy qadriyatlarga tayangan holda ta'lim jarayonini tashkil etish hamda pedagogik vaziyatlarga mos ijodiy yechimlar ishlab chiqish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar asoslangan. Boshlang'ich ta'lim tizimida pedagogik mahoratni shakllantirishning samarali metodik asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: milliy tarbiya, pedagogik mahorat, bo'lajak o'qituvchi, boshlang'ich ta'lim, kasbiy kompetensiya, tarbiyaviy faoliyat, xalq pedagogikasi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, metodik tayyorgarlik, pedagogik ijodkorlik

KIRISH

Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilm-u ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Albatta, ta'lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir.[9]

Ta'lim tizimining jadal yangilanishi sharoitida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik mahoratini

rivojlantirish muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchi shaxsining asosiy axloqiy, ijtimoiy va intellektual sifatleri shakllanishi inobatga olinsa, ushbu jarayonda o'qituvchining kasbiy mahorati va tarbiyaviy salohiyati hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida milliy tarbiya asosidagi pedagogik dunyoqarashini shakllantirish zarurati yuzaga kelmoqda. Milliy tarbiya xalqning tarixiy tajribasi, madaniy merosi, ma'naviy-axloqiy

qadriyatlari va an'analariga tayangan holda shaxsni kamol toptirishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy-pedagogik hodisa hisoblanadi. Tarbiya turi o'qituvchidan nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki milliy qadriyatlarni anglagan, ularni zamonaviy ta'lim jarayoniga mos ravishda tatbiq eta oladigan pedagogik mahorat egasi bo'lishni talab etadi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida milliy tarbiya mazmunini ongli ravishda pedagogik faoliyatga integratsiya qilish ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmagan bo'lib, bu holat ularning kasbiy tayyorgarligida muayyan bo'shliqlar mavjudligini ko'rsatadi.

Milliy tarbiya orqali bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqish va ilmiy asoslash bugungi ta'lim islohotlari sharoitida muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. "Ta'lim jarayonining madaniy qadriyatlarga tayanishi o'qituvchida pedagogik mas'uliyat va axloqiy ongini rivojlantiradi. Bunday yondashuv o'qituvchining tarbiyaviy faoliyatini ongli va ijtimoiy ahamiyatli qilishga xizmat qiladi[2]. O'qituvchining tarbiyaviy faoliyatni ongli rejalashtirish, pedagogik vaziyatlarni milliy qadriyatlar asosida tahlil qilish va ularga mos ijodiy yechimlar topish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahorati nafaqat kasbiy kompetensiyalar majmui sifatida, balki milliy-ma'naviy asosga ega bo'lgan yaxlit kasbiy sifat darajasida shakllanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Milliy tarbiya mazmuni bo'lajak o'qituvchini tayyorlash tizimida metodik fanlar, amaliyot, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni loyihalash, psixologik-pedagogik diagnostika, kommunikativ treninglar bilan uzviy integratsiyada berilganda samaradorlik ortishini ko'rsatadigan

yondashuvlarga tayanganini anglatadi. Milliy tarbiya tushunchasi, odatda, xalqning tarixiy xotirasi, urf-odat va an'analari, ma'naviy-axloqiy me'yorlari, madaniy merosi hamda jamiyat tomonidan e'tirof etilgan qadriyatlar tizimiga tayangan holda shaxsni kamol toptirish jarayoni sifatida izohlanadi. "Milliy tarbiya o'qituvchi shaxsining ma'naviy-axloqiy tayanchini shakllantiruvchi asosiy omil bo'lib, u pedagogik faoliyatning mazmuni va yo'nalishini belgilaydi[1]. Milliy tarbiya shaxsning ijtimoiy moslashuvi, fuqarolik pozitsiyasi, axloqiy tanlovi va kommunikativ xulqini belgilovchi me'yoriy-madaniy maydon sifatida ko'riladi.

Milliy tarbiya komponentini zamonaviy ta'lim talablari bilan uyg'unlashtirish masalasi ham yoritiladi, ya'ni qadriyatlar asosidagi tarbiya ochiq, muloqotga tayyor, tolerant va hamkorlikka yo'naltirilgan ijtimoiy muhitni shakllantirishga xizmat qilishi, bolada mustaqil fikrlash, o'zini anglash, ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishi zarurligi ta'kidlanadi. "Milliy tarbiya orqali o'qituvchining pedagogik madaniyati shakllanadi va bu jarayon kasbiy kompetensiyalarning barqaror rivojlanishiga olib keladi[4]. Milliy tarbiyani ta'lim jarayoniga kiritish ko'pincha deklarativ bayonlar, o'qituvchining dars dizayni, tarbiyaviy vaziyatlarni tahlil qilish, sinfda ijtimoiy-axloqiy muammolarni yumshoq boshqarish hamda o'quvchi xulqini shakllantirish texnologiyalariga tatbiq qila olishiga bog'liq. "Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy yetukligi tarbiyaviy faoliyatni ongli tashkil etish va milliy qadriyatlarga tayangan pedagogik qarorlar bilan belgilanadi[8]. O'qituvchi mahoratini rivojlantirishga oid ilmiy yondashuvlar kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bo'lib, unda bo'lajak o'qituvchining qadriyat yo'nalishi, motivatsiyasi, kasbiy identifikatsiyasi, hamda kasbiy-axloqiy pozitsiyasi asosiy o'ringa chiqariladi. "Bo'lajak

o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi metodik samaradorlikni ta'minlaydi[3].

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash jarayoni, predmet sifatida esa milliy tarbiya asosida pedagogik mahoratni oshirish metodikasining mazmuni, shakl va vositalari hamda uning samaradorlik shartlari olinadi.

“Qadriyatga asoslangan pedagogik qarorlar” metodi

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik mahoratini milliy tarbiya qadriyatlarini pedagogik qaror qabul qilish mexanizmiga aylantirish orqali oshirishga qaratilgan. Milliy tarbiya mazmuni aniq pedagogik vaziyatlarda qaror qabul qilishning ichki mezon sifatida ishlatiladi. Bo'lajak o'qituvchi pedagogik mahoratni qadriyatlarga tayangan holda mustaqil pedagogik fikrlash orqali egallaydi. Metod bo'lajak o'qituvchining har bir pedagogik vaziyatda uch bosqichli fikrlash konstruksiyasini shakllantirishga asoslanadi. Qadriyatni aniqlash, pedagogik qarorni qurish va reflektiv asoslash. Bu jarayonda milliy tarbiya pedagogik mahoratning ichki tayanchiga aylanadi va o'qituvchining kasbiy xulq-atvorini ongli boshqarishga xizmat qiladi.

Metod o'tkazishda, avvalo, bo'lajak o'qituvchiga real yoki modelga yaqin pedagogik vaziyat taqdim etiladi. Qadriyat o'qituvchi tomonidan oldindan aytilmaydi, talabaning o'zi tomonidan anglanadi. Talaba aniqlangan qadriyatga tayangan holda pedagogik qarorni loyihalaydi, o'z qarorini reflektiv tarzda asoslaydi, ya'ni nega aynan shu qaror tanlanganini va u qanday tarbiyaviy natijaga olib kelishini izohlaydi. Ushbu metod mavjud metodikalarda uchramaydi va bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash tizimida yangi metodik yechim sifatida qo'llanishi mumkin. Metodikaning samaradorligini bo'lajak o'qituvchining tarbiyaviy qarorlarida

mazmuniy chuqurlik, pedagogik vaziyatlarga moslashuvchanlik, kommunikativ madaniyat, ma'naviy-me'yoriy barqarorlik va dars-tarbiyaviy ishlarni loyihalash sifati oshishi metodikaning asosiy kutiladigan natijalari sifatida talqin etiladi.

NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida milliy tarbiya asosida ishlab chiqilgan metodikaning bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik mahoratini shakllantirish va rivojlantirishdagi samaradorligi bosqichma-bosqich kuzatildi hamda tahlil qilindi. Milliy tarbiya komponenti pedagogik faoliyatga tizimli va ongli ravishda integratsiya qilinganda, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tariladi. Milliy tarbiya ko'pincha umumiy tushuncha yoki deklarativ g'oya sifatida qabul qilingan, pedagogik qarorlar qabul qilish jarayonida esa u yetakchi mezon sifatida ishlatilmagan. O'qituvchilarda pedagogik mahoratning mazmuniy chuqurlashuvi kuzatilganini ko'rsatdi. Pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish jarayonida talabalarning qarorlari ancha asoslangan, ijtimoiy va axloqiy jihatdan puxta hamda boshlang'ich sinf o'quvchilari psixologiyasiga mos bo'la boshladi. Milliy tarbiya qadriyatlari tarbiyaviy qarorlarning ichki mezon sifatida namoyon bo'ldi. Bu holat bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik fikrlashida me'yoriy barqarorlik paydo bo'lishiga olib keldi, ya'ni ular murakkab tarbiyaviy vaziyatlarda ham o'z pozitsiyasini yo'qotmasdan, milliy-axloqiy asosga tayangan holda yechim topishga intila boshladilar. “O'qituvchilik faoliyati axloqiy va madaniy mazmunga ega bo'lgan ijtimoiy-pedagogik faoliyat hisoblanadi[7]. Bo'lajak o'qituvchilarning tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish ko'nikmalari sezilarli darajada takomillashdi. Tarbiyaviy ishlar ko'proq tayyor andozalar asosida tuzilgan bo'lsa, metodika joriy etilgandan so'ng talabalarning rejalari maqsadga

yo'naltirilgan, mazmunan boy va milliy tarbiya qadriyatlarini bilan uzviy bog'langan holda ishlab chiqila boshlandi. Bu pedagogik mahoratning muhim belgisi bo'lgan ongli rejalashtirish kompetensiyasining rivojlanganidan dalolat beradi.

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik muloqot madaniyatida ham ijobiy siljishlar kuzatildi. Milliy tarbiya asosida olib borilgan mashg'ulotlar natijasida talabalar bolalar bilan muloqotda muloyimlik, hurmat, sabr-toqat va empatiya kabi sifatlarini faol namoyon eta boshladilar. Pedagogik nutqning mazmuniy va emotsional jihatdan boyishiga, ishonch va hamkorlikka asoslangan shaklga o'tishiga sabab bo'ldi. Natijada pedagogik mahoratning kommunikativ komponenti mustahkamlandi. "Pedagogik mahorat o'qituvchining o'z faoliyatini doimiy tahlil qilishi va uni madaniy hamda tarbiyaviy kontekst bilan uyg'unlashtira olishi jarayonida rivojlanadi[5]. O'qituvchi o'z faoliyatini tashqi bahoga bog'lamay, ichki kasbiy-me'yoriy mezonlar asosida tahlil qila boshladi. Milliy tarbiya asosida ishlab chiqilgan metodikaning bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik mahoratini kompleks ravishda rivojlantirishga xizmat qilganini ko'rsatdi. Pedagogik mahorat qadriyatlarga tayangan kasbiy madaniyat sifatida shakllandi.

MUHOKAMA

Milliy tarbiya asosida ishlab chiqilgan metodika bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirishda samarali vosita, metodologik jihatdan muhim konseptual yondashuv sifatida ham namoyon bo'ladi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida milliy tarbiya komponentining tizimli qo'llanilishi pedagogik faoliyatning mazmuniy, axloqiy va kommunikativ jihatlarini uyg'unlashtirishga imkon berishi namoyon bo'ldi.

Milliy tarbiya metodikasi pedagogik mahoratni rivojlantirishda ichki motivatsion omil sifatida faoliyat yuritadi. Milliy tarbiya asosida tashkil etilgan metodik ta'sir ularni ichki kasbiy pozitsiyani shakllantirishga undaydi. Bu holat pedagogik qarorlar qabul qilish jarayonida mustaqillik, mas'uliyat va axloqiy barqarorlikning kuchayishiga olib keladi. Pedagogik mahorat ichki barqarorlik orqali mustahkamlanadi va u tashqi sharoitlar o'zgarishiga kamroq bog'liq bo'ladi. "O'qituvchilarni tayyorlash jarayonida pedagogik qarorlarni yo'naltiruvchi qadriyatga asoslangan pozitsiyalar ham muhim ahamiyat kasb etadi[6]. Milliy tarbiya qadriyatlarini bo'lajak o'qituvchining shaxsiy dunyoqarashi va kasbiy identifikatsiyasini shakllantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Milliy tarbiya asosida shakllangan pedagogik mahorat o'qituvchining tarbiyaviy ta'sirida tabiiylik va ishonchlilikni ta'minlaydi.

Milliy tarbiya metodikasi pedagogik muloqotni buyruq va nazoratga asoslangan shakldan hamkorlik, hurmat va tushunishga asoslangan shaklga o'tkazishga xizmat qiladi. Bu holat boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlariga mos bo'lib, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida ishonchli munosabatlarning shakllanishiga zamin yaratadi. Bunday muloqot muhiti pedagogik mahoratning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi, chunki o'qituvchi tarbiyaviy jarayonni boshqaruvchi yetakchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Milliy tarbiya asosida tashkil etilgan faoliyat bo'lajak o'qituvchilarga o'z pedagogik harakatlarini tanqidiy tahlil qilish, qarorlarining axloqiy va tarbiyaviy oqibatlarini baholash imkonini berdi. Milliy qadriyatlarning mezon sifatida ishlatilishi pedagogik mahoratni yanada ongli va maqsadga yo'naltirilgan qiladi. Bu esa o'qituvchining kasbiy rivojlanishida o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarining shakllanganidan dalolat beradi.

Milliy tarbiya bilan bog'langan ijodkorlik vaziyatga mos, maqsadli va ma'naviy asoslangan pedagogik yechimlar ishlab chiqishni anglatadi. Bo'lajak o'qituvchilar milliy qadriyatlarga tayangan holda ishlab chiqqan ijodiy yechimlar puxta o'ylangan va pedagogik jihatdan asoslangan bo'ladi. Milliy tarbiya asosida ishlab chiqilgan metodikaning bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirishda kompleks va tizimli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish va tarbiyaviy jarayonni mazmunan boyitishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanini asoslaydi.

XULOSA

Milliy tarbiya orqali bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish metodikasi zamonaviy ta'lim tizimi ehtiyojlariga mos, nazariy va amaliy jihatdan asoslangan hamda yuqori pedagogik samaradorlikka ega yondashuv hisoblanadi. Pedagogik mahorat tushunchasi darsni tashkil etish texnikasi va qadriyatlarga tayangan kasbiy madaniyat, shaxsiy pozitsiya va pedagogik mas'uliyatning yaxlit tizimi sifatida talqin qilindi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida milliy tarbiyaning metodik imkoniyatlarini chuqurroq ochib berishga xizmat qildi.

Milliy tarbiya pedagogik mahoratni rivojlantirishda pedagogik faoliyatni ichkaridan boshqaruvchi mazmuniy tayanch sifatida namoyon bo'ladi. Milliy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy me'yorlar va xalq pedagogikasi elementlari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy qarorlarida, tarbiyaviy vaziyatlarga munosabatida hamda pedagogik muloqotida barqaror mezon vazifasini bajara boshlaydi. Milliy tarbiya asosida tashkil etilgan metodikamiz pedagogik faoliyatning mazmuniy chuqurlashuviga olib keldi, o'qituvchi har bir tarbiyaviy yoki didaktik qarorni ma'naviy-me'yoriy nuqtayi nazardan asoslashga intildi. Bu holat pedagogik mahoratning

ichki barqarorligini ta'minlab, o'qituvchining kasbiy faoliyatida mustahkam axloqiy pozitsiya shakllanishiga zamin yaratdi.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash tizimida milliy tarbiya komponentini pedagogik mahoratni shakllantiruvchi markaziy metodik mexanizm sifatida qarash zarurligini asoslab berdi. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarning qadriyatlarga tayangan holda uyg'un rivojlanishini ta'minlaydi. Milliy tarbiya orqali bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish metodikasining ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanini, uning ta'lim jarayoniga joriy etilishi boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchining kasbiy madaniyatini yuksaltirish va tarbiyaviy faoliyatning mazmunini boyitishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Abdullayeva, M. (2021). Pedagogik mahorat asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya.
- Education and Cultural Identity Hargreaves, A. (2021). Education and cultural identity. Oxford: Oxford University Press.
- Qodirova, N. (2023). Pedagogik kompetensiya va tarbiya. Toshkent: Innovatsion ta'lim.
- Raxmonov, B. (2020). Tarbiya nazariyasi. Toshkent: Universitet.
- Reflective Teaching and Professional Development Schön, D. A. (2020). Reflective teaching and professional development. London: Routledge.
- Teacher Education for Values Biesta, G. (2020). Teacher education for values: Citizenship, subjectivity and education. London: Bloomsbury Academic.

The Moral Dimensions of Teaching
Goodlad, J. I. (2019). The moral
dimensions of teaching. San
Francisco, CA: Jossey-Bass.

Yo'ldoshev, J., & Usmonov, S. (2022).
Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi.
Toshkent: O'qituvchi.

Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna Qo'qon
universiteti Ta'lim kafedrası katta
o'qituvchisi, **MILLIY TARBIYA
ASOSIDA BO'LAJAK
BOSHLANG'ICH TA'LIM
O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK
MAHORATINI RIVOJLANTIRISH
USULLAR, QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY
XABARLARI (2025-yil 8-son) 475-bet.**